

ТАЪЛИМ ТИЗИМИДА ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАР



Таълим тизимида ижтимоий-гуманитар фанлар

МУНДАРИЖА

ФАЛСАФА

Зияев Ф.С. Тасаввуф илми ва унинг маънавий жихатлари.....	6
Каримов Б. Данте ижодида шарқ алломаларининг муносиб ўрни.....	11
Miraxmedov J.M. Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samarradorligini oshirishda milliy o'zlikni anglash va tarixiy ongni yuksaltirishning ijtimoiy-madaniy omillari.....	17
Маннопов Х.М. Мамлакатимизда амалга оширилаётган ислохотлар жараёнини таҳлил қилишда ОАВ роли.....	21
ПЕДАГОГИКА ВА ПСИХОЛОГИЯ	
Бабаева Л.Л. "Интеграция цифровых образовательных ресурсов в профессиональное образование: путь к развитию компетенций".....	28
Утегенов О.Д., Алимов Б.К. Различные правовые системы в мире.....	33
Степанова О.И. Трансформация логических принципов построения научного рассуждения в условиях глобализации.....	37
Abdullaeva G.A. Shaxs tarbiyasida axloqiy ehtiyojlar.....	42
Alimova Sh.R. Xalq pedagogikasi vositasida bo'lajak o'qituvchilar ma'naviyatini rivojlantirishning zamonaviy shakl, metod va vositalari.....	47
Rakhmonova D.S. Interfaol ta'lim texnologiyalarining mohiyati va ularning shaxsning kreativ qobiliyatlarini rivojlantirishdagi imkoniyatlari.....	53
То'uchiyeva М. Ta'lim va tarbiya poydevori.....	56
Эркабоев Ж.Э. Спорт мусобақаларини ташкил этиш ва ўтказишда менежерларнинг ўрни.....	61
Зокирова Ф.Р., Каримбаева А.А. Ахборот-коммуникация технологиялари ёрдамида ўқув жараёнларини ривожлантиришнинг замонавий омиллари.....	64
Karimova N.O., Muxammadjonova M.G'. Innovatsion texnologiyalarning pedagogik qarashlari.....	70
Fayzullaev U.S., Kurbonaliyev J.A. Ta'lim jarayonlarida Prezi dasturidan foydalanish.....	74
Yakubova B.B. Talabalarda mustaqil fikrlash darajalarini rivojlanish mezonlari va ko'rsatkichlari.....	79
Ташматова Ш.С., Курбонова К.Э., Туляганов З.Я. Применение информационных технологий в сфере образования.....	82
Абдурашидова К.Т., Зокирова Ф.Р., Мухиддинова М.А. Техника fanlarini o'zlashtirish sifatini oshirishda innovatsion texnologiyalar.....	89
Каримова Д.К., Хошимова Ч.С., Сатторов С.М. Компьютерное обучение лингвистике.....	94
Юлдашева С.М. Педагогик таълим йўналиши талабаларининг касбий тайёргарлик даражасини аниқловчи предикторларни прогнозлаш.....	99
Abduraxmonov M. Axborotni tizimli tahlil qilish modellarining siyosiy tizim faoliyati va siyosiy maqsadni amalga oshirishdagi ahamiyati.....	105
Межевникова О.П. Узбекистан на пути становления виртуального пространства	110
Жўраева С.Н. Замонавий-педагог имижи шаклланишининг асосий хусусиятлари	115
Usarboyeva D.U. Talabalarining akademik mobilligini shakllantirish mexanizmlari.....	119
Акбарова Ш.А., Yunusova F.M. O'quv jarayonida axborot texnologiyalaridan foydalanib hozirda takomillashgan pedagogik texnologiyalarini qo'llash.....	123

Махкамova M.Y. O'рта maxsus o'quv yurtlari talabalarida muomala madaniyatini tarbiyalash ijtimoiy pedagogik muammo sifatida.....	127
Уралова M.Г. Образовательные парадигмы и модели на современном этапе развития общества.....	133
Хусанов Э.Т. Экогуманистик дунёқараш “Инсон-табиат” муносабатларининг асоси сифатида.....	138
Sirojiddinova I.M. The main goal of the activity of the pedagogical educational cluster to improve the professional training of future engineers.....	142
Рахматова Ф.М. Талабаларнинг интегратив ёндашув асосида лойихалаш-конструкторлик компетенцияларини ривожлантириш тамойиллари.....	147
ИҚТИСОД	
Isomova S. Bозor munosabatlari sharoitida byudjet siyosatini takomillashtirish yo'llari	150
Мустафоев Г.С. Қишлоқ жойларида хизмат кўрсатиш соҳасини давлат томонидан тартибга солиш ва қўллаб-қувватлашда хориж тажрибасидан фойдаланиш.....	156

Журнал Ўзбекистон матбуот ва ахборот агентлиги томонидан рўйхатга олинган, 2007 йил 22 январь, № 0205 сонли гувоҳнома

ISSN 2181-7286. Иқтисод бўлими ОАК рўйхатига 2019 йил 1 январдан, Педагогика бўлими 2019 йил 29 июндан, Тарих, Фалсафа, Психология бўлимлари 2022 йил 30 ноябрдан, киритилган.

Журнал зарегистрирован Узбекским агентством по печати и информации 22 января 2007 года, свидетельство № 0205

ISSN 2181-7286. С 1 января 2019 г. журнал включен в перечень ВАК экономического отдела, с 29 июня 2019 г. – в перечень отдела педагогики, с 30 ноября 2022 г. – в перечень отделов истории, философии и психологии.

The journal was registered by the Press and Information Agency of Uzbekistan, January 22, 2007, certificate No. 0205

ISSN 2181-7286. The part of of Economy has been included in the list of Higher Attestation Committee since January 1, 2019, the part of Pedagogy since June 29, 2019, and the parts of History, Philosophy, and Psychology since November 30, 2022.

ПЕДАГОГИКА ВА ПСИХОЛОГИЯ

// Журнал научных и прикладных исследований. – 2019. – S. 33.

5. Xudayqulov X., Abdurazaqov F. Yoshlar orasida nutq madaniyati rivojlantirish texnologiyalari //Science and innovation. – 2022. – T. 1. – №. B7. – S. 815-821.
6. Xaydarova X. R. Milliy qadriyatlar asosida ota-onalarning virtual-pedagogik madaniyatini rivojlantirish masalalari //Results of National Scientific Research International Journal. – 2023. – T. 2. – №. 1. – S. 264-272.
7. Ma'naviyat: asosiy tushunchalar lug'ati – T.: "O'zbekiston Faylasuflari milliy jamiyati" nashriyoti. 2009. –B.957
8. Muhammad Sodiq Qoshg'ariy. Yaxshi kishilar odobi (Odob-as-solihin).-Toshkent: Yangi asr avlodi, 2002. – B.32-40
9. Sh.I.Paxrutdinov. Barqaror taraqqiyot va rahbar mas'uliyati."Akademiya" T:2011.-B.122

УДК:37.017.92

XALQ PEDAGOGIKASI VOSITASIDA BO'LAJAK O'QITUVCHILAR MA'NAVIYATINI RIVOJLANTIRISHNING ZAMONAVIY SHAKL, METOD VA VOSITALARI

СОВРЕМЕННЫЕ ФОРМЫ, МЕТОДЫ И ПОДДЕРЖКА ПОВЫШЕНИЯ МОРАЛЬНОГО ДУХА БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ С ПОМОЩЬЮ НАРОДНОЙ ПЕДАГОГИКИ.

MODERN FORM, METHOD AND MEANS OF DEVELOPING THE SPIRITUALITY OF POTENTIAL TEACHERS THROUGH FOLK PEDAGOGY.

Alimova Sh.R. (BuxDU 2-bosqich tayanch doktoranti)

Ushbu maqolada bo'lajak o'qituvchilarini ma'naviyatini rivojlantirishning zamonaviy shakl, metod va vositalari haqida fikr yuritilgan. Metodlarning amaliy ahamiyati atroflicha muhokama qilingan. Xalq pedagogik ma'naviyatining boy milliy merosini o'rganish, etnik-ma'naviy bilimlarning maqbul hajmini aniqlash, uni bo'lajak o'qituvchi zamonaviy modeliga qo'yiladigan talablar bilan muvofiqlashtirish, bo'lajak o'qituvchilarni halol mehnatga yo'naltirish, rag'batlantirish va baholash tarbiya usullari haqida ma'lumotlar o'rganiladi.

Kalit so'zlar: etnik-ma'naviyat, tarbiya vositasi, shaxs ongini shakllantirish (ishontirish) metodlari, faoliyatni tashkil etish va xulq-atvor me'yorlarini shakllantirish (mashq) metodlari, mashq va o'rgatish metodlari, pedagogik talab, faoliyatni rag'batlash va motivatsiyalash metodlari.

В данной статье рассматриваются современные формы, методы и средства развития духовности будущих учителей. Подробно рассмотрено практическое значение методов. Изучить богатое национальное наследие педагогической духовности народа, определить оптимальный объем этнодуховных знаний, согласовать их с требованиями современной модели будущего учителя, направить будущих учителей на честный труд, изучается мотивация и оценка обучения.

Ключевые слова: этнодуховность, средства воспитания, методы

ПЕДАГОГИКА ВА ПСИХОЛОГИЯ

формирования (убеждения) личностного сознания, методы организации деятельности и формирования (упражнения) норм поведения, методы обучения и преподавания, педагогические требования, мотивация деятельности и мотивационные методы.

This article discusses modern forms, methods and means of developing the spirituality of future teachers. The practical significance of the methods is discussed in detail. To study the rich national heritage of the people's pedagogical spirituality, to determine the optimal amount of ethno-spiritual knowledge, to coordinate it with the requirements of the modern model of the potential teacher, to direct teachers to honest work, Information about methods of motivation and assessment of education is studied.

Key words: Ethno-spirituality, means of education, methods of forming (convincing) personal consciousness, methods of organizing activities and forming (exercise) norms of behavior, training and teaching methods, pedagogical requirements, activity motivation 'batting and motivating methods.

Kishilarda milliy o'zlikni anglashining o'sishi, ta'limning ijtimoiy funksiyalarining kengayishi va an'analarni yetkazishning yangi usullarini topishning tobora ortib borayotganligi bilan tavsiflanadi. Shu munosabat bilan ham umuminsoniy qadriyatlar va madaniyat, milliy ta'lim madaniyati an'analari tashuvchisi sifatida bo'lajak o'qituvchining roli ham yangilanib bormoqda.

Jamiyat shiddat bilan taraqqiy etib borayotgan bir paytda, ya'ni tarbiya va ta'limning eski qoliplarini buzish davrida, an'anaviy va yangilik o'rtasidagi qarama-qarshilikda bo'lajak o'qituvchi ma'naviy dunyosini shakllantirish jarayoni buziladi, bu holat ayniqsa yosh avlod vakillari orasida yorqin namoyon bo'ladi. Bo'lajak o'qituvchilar zamonaviy ta'lim jarayonida ma'naviy qadriyatlar tanqisligi, etnik-madaniy tajribada mavjud bo'lgan ma'naviy salohiyat bilan bartaraf etilishi mumkin. Bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy tayyorgarligida aynan shundan foydalanish maqsadga muvofiq.

Ma'naviy-axloqiy ideal sharoitda xalq ruhining inqirozi bilan kechadigan umumiy sharoitida, rivojlanishning umumiy tamoyillari va yo'riqnomalari mavjud bo'lmoqda, o'ziga xoslikning yaxlit qiyofasini taqdim etish juda muhimdir. O'zbekiston ma'naviyatidagi qiyinchiliklarni yengish va Vatan kelajagiga ishonish uchun xalq qalbining yo'qolgan ruhini tiklash zarur. Xalq pedagogik ma'naviyat asosini tiklash, asrab-avaylash va yetkazishga qodir etnik madaniy kompetensiyaga ega bo'lgan bo'lajak o'qituvchi xalq ma'naviyatini tiklab, yosh avlodda ma'naviyatni tarbiyalay oladigan kuch desag maqsadga muvofiq.

Zamonaviy sharoitda oliy dargohlarda o'quv jarayonini sifat jihatidan o'zgartirishning mumkin bo'lgan usullaridan biri bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy tayyorlash jarayoniga ta'limning etnopedagogik madaniyati g'oyalarini qo'llash va kiritish ayni muddao.

Fan oldida xalq pedagogik ma'naviyatining boy milliy merosini o'rganish, etnik-ma'naviy bilimlarning maqbul hajmini aniqlash, uni bo'lajak o'qituvchi zamonaviy modeliga qo'yiladigan talablar bilan muvofiqlashtirish, o'ziga xos xususiyatga aylantirish vazifasi ham turibdi. Bularning yechimi bo'lajak o'qituvchi fazilatlarining namoyon bo'lishi uchun yaxlit asos bo'la oladi.

Bo'lajak o'qituvchilarni etnik-ma'naviy kompetensiya asosida maktab o'quvchilari ma'naviyatini tarbiyalashga tayyorlash jarayonida etnik- ma'naviy tajribaning tarbiyaviy imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishga qodir bo'lgan pedagogik shart-sharoitlarni aniqlash va adekvat tarbiya vositalarini ishlab chiqishni talab etadi.

ПЕДАГОГИКА ВА ПСИХОЛОГИЯ

Bugungi kun milliy-ma'naviy siyosatning ehtiyojlari va shartlari maktabni xalqning ma'naviy rivojlanishi va ta'limining eng muhim kafolati sifatida ko'rib chiqishni talab qiladi. Bu o'z navbatida, bizni oliy ta'lim dargohlarimiz bo'lajak o'qituvchilarda etnik-ma'naviy kompetensiyani shakllantirishi orqali asl milliy pedagogik madaniyatining etnik-ma'naviy tajribasini o'rganish, saqlash va yetkazishga qodir bo'lgan ijtimoiy muassasa sifatida qarashga majbur qiladi.

Tarbiya metodi tushunchasi. Tarbiya metodi tarbiyalanuvchilarning ongi, irodasi, tuyg'ulari va xulqiga ta'sir etish usullari yig'indisidir. Metodlar davr o'tishi bilan rivojlanib borishni talab etadi. Har bir metodni bo'lajak o'qituvchi o'ziga xos yondashuv asosida qo'llaydi bu esa usullarning paydo bo'lishiga olib keladi. Demak, tarbiya metodlarining amaliyotda qo'llanishi jarayonida bo'lajak o'qituvchining yondashuvi yangi tarbiya usullarining paydo bo'lishiga asos bo'ladi. Tarbiya usullarini yaratish, avvalo, bo'lajak o'qituvchining kasbiy mahorati va tajribasi natijasida paydo bo'ladi.

Tarixga nazar tashlaydigan bo'lsak, o'zbek xalqi bo'lajak o'qituvchining ma'naviyatini rivojlantirishda o'ziga xos maktab yaratganligiga guvoh bo'lamiz. Bu boradagi fikrlarni keltirib o'tamiz:

- Odob ona suti bilan kirsak, o'lim kelsa ham ketmaydi. (Maqol)
- Odobsiz olim mevasiz daraxtdir (Muhammad Zehniy)
- Odob ahli bilan hamsuhbat bo'lish –gullar hidini ufurayotgan tong nasimidan ham shirin. (“O'talar so'zi”)
- Kishida aqil ustiga odob ham qo'shilsa, nur ustiga a'lo nur bo'ladi. Ulug'lik aqlu odob bilan vujudga keladi. (“Favoqih al- julaso”).
- Odob –ulug'lik va yuksaklik qasrining narvoni, bu narvon orqali barcha maqsad va manzilga yetish mumkin.Sharm gulzoridan esa barcha muddao gulini dastalash mumkin.(Maqol)
- Odobli odam tabibga o'xshaydi, u bilan suhbatlashish ko'ngildagi g'ammi quvadi. (“O'talar so'zi”)
- Chiroyli xulq odobga o'xshaydi, odob muzni eritgani yoki suv tuzni eritib yuborgani kabi chiroyli xulq ham barcha yomonliklarni eritib yuboradi. (Abulbarokot Qodiri)
- Onadan tarbiya ko'rmagan qiz yomon, otadan ta'lim olmagan o'g'il yomon (“o'rqit ota kitobi”).

Odob, bu yomon so'zdan va yomon ishdan o'zini tiymoqdir hamda o'zining ham izzatini saqlab, obro'sini to'kmaslikdir. (Koshifiy) [2]

Xalq donishmandligi va odobnomasining bunday nodir sohasi, fikr va g'oyalar, bo'lajak o'qituvchining ma'naviyatini rivojlantirishda, umuminsoniy fazilatlar ruhida tarbiyalashda boy meros bo'lib xizmat qiladi .

Bo'lajak o'qituvchilar ma'naviyatini rivojlantirishda, xalq pedagogikasi turli xildagi usullar yig'indisi hisoblanadi.

Mehnat tarbiyasi bo'lajak o'qituvchida ijtimoiy foydali mehnatga ichki ehtiyoj, batartiblik, tashkilotchilik, tashabbuskorlik, ishchanlik, ishning ko'zini bilish singari sifatlarni qaror toptirishga xizmat qiladi. Mehnat tarbiyasini berish hamma zamonlarda ham jamiyat taraqqiyotining asosi bo'lgan, bo'lajak o'qituvchilarni faoliyatga tayyorlashning eng muhim vositasi bo'lib kelgan. Shuning uchun ham barcha ilohiy kitoblar va bitiklarda mehnat tarbiyasiga katta e'tibor berilgan.

Bo'lajak o'qituvchilarni halol mehnatga yo'naltirish, rag'batlantirish va baholash tarbiya usulidir. Demak bo'lajak o'qituvchilarni ma'naviyatini xalq pedagogikasi vositasida

ПЕДАГОГИКА ВА ПСИХОЛОГИЯ

rivojlantirish metodlari qo'yilgan maqsadni muvafaqqiyatli amalga oshirish uchun foydalaniladigan usul va vositalar tizimi sifatida aniqlanadi. Metodlar o'ziga xos xarakteriga ko'ra ishontirish, mashq, rag'batlantirish va tanbeh berishga bo'linadi. Bularni xalq pedagogikasidagi misollar orqali izohlaymiz.

Alisher Navoiyning "Mahbub-ul-qulub" asari 18-faslida o'qituvchilik mehnati mashaqqati xususida shunday deyiladi: "Uning ishi odam tugul, hatto devning ham qo'ldan kelmaydi. Bir kuchli kishi bir yosh bolani saqlashga ojizlik qilar edi, u esa bir to'da bolaga ilm va adab o'rgatadi. Lekin shunisi ham borki, bolalar orasida fahmi idroki ozlari bo'ladi. Muallim bu kabi hollarda yuzlab mashaqqat chekadi. Shu jihatdan olganda, bolalarda uning haqi ko'p, agar shogird ulg'aygach, podshohlik martabasiga erishsa ham unga (muallim)ga qulluq qilsa arziydi".

Bayt:

Haq yo'lida kim senga bir harf o'qutmish ranj ila,
Aylamak bo'lmas ado oning haqin yuz ganj ila [3].

Navoiy o'z ijodida shoshqaloqlik va uning aksi bo'lmish sabr mavzusiga ham murojaat qiladi: "Sabr bilan ko'p bog'liq ish ochilur, ishda oshiqg'on kishi ko'p toyilur, ko'p toyilg'on ko'p yiqilur. Ishda oshiqmoq yosh o'g'lon ishidur. Sabr bila ish qilg'uchi tajribalig', ulug' yoshlig' kishi ishidur"

Bayt:

Har kimsaki, aylamas oshiqmoqni xayol,
Yafrog'ni ipak qilur, chechak bag'rini bol [4].

Asarda sabr haqida so'z borar ekan, yana bir o'rinda ijodkor sabrning o'zi achchiq bo'lsa ham, u faqat manfaat keltiradi, u qattiq narsa, ammo zararni daf etadi deya ta'kidlaydi. Sabrni ta'riflash uchun turli tashbehlardan foydalanadi. Sabrni suhbatlari zerikarli bo'lsa ham, maqsadga aniq olib boruvchi musohibga, oxiri murodga yetkazuvchi, uzoqni ko'zlovchi ulfatga, yurishi sust bo'lsa-da manzilga yetkazuvchi ulovga o'xshatadi. Shuningdek, shoir sabrni tabibning achchiq dorisiga qiyoslaydi. Zero, hech kim uni xushlamasa-da, u shifo baxsh etadi [3, 173-174].

Rasululloh uyqudan uyg'ongach shunday o'gitlar ayon bo'ldi.

- ✓ Eshitgan har gapga ko'r-ko'rona ishonavermang.
- ✓ Takabbur, shuhratparast va maqtanchoq bo'lmang [5].

Payg'ambarimiz Rasululloh (s.a.v)ga ayon bo'lgan o'gitlarni shunday mushohada qilsak bo'ladi. Bo'lajak o'qituvchilarni har gapga ishonavermaslikka va yosh avlodni tarbiyalashda ko'r-ko'ronalikka yo'l qo'ymaslikka, ehtiyodkor bo'lishga undaydi. Biz bilamizki, aynan o'zbek xalqi ustoz va o'qituvchi- murabiylarga iliq munosabat bilan qaraydi. Bo'lajak o'qituvchida takabburlik, shuhratparastlik va maqtanchoqlik kabi illatlar umuman bo'lmasligi lozim. Bunday illatlarga qarshi organizmda ma'navan yuksak vaksina qabul qilishi darkor. Shundagina yosh avlodni komil shaxslar qilib ulg'aytirishda adashmaymiz.

Hadislarda bu borada shunday deyiladi:

- Munofiqlik belgisi uchta: yolg'on so'zlash, va'dasining ustidan chiqmaslik va omonatga xiyonat qilish.
- Tangri nazdida eng yaxshi gap rost gapdir.

ПЕДАГОГИКА ВА ПСИХОЛОГИЯ

- Bu dunyoda odamlarga qattiq azob beradigan kishilarni tangri qiyomat kuni qattiq azoblaydi.
- Oralarigizda eng kuchlilarning kimligini aytaymi? U g'azabi kelganda o'zini tutib tura oladiganingizdir.
- Qaysi biror odam halol kasb bilan mol-u dunyo topib, undan o'zining va tangrining boshqa bandalarining oziq-ovqati va kiyim- kechagi uchun sarf qilsa, shularning hammasi unga sadaqa hukmida yoziladi.
- Sabr bardosh tangridan, shoshqaloqlik esa shaytondandir.
- Rostgo'ylikda xavf-u xatar ko'rsanglar va rost so'zlanglar. Shunda najot topasizlar. Garchi foyda ko'rib turgan bo'lsangiz ham, yolg'ondan saqlaninglar. Chunki yolg'onning oxiri voy.
- Pora beruvchi ham uni oluvchi ham do'zaxga mahkumdur.
- Bir saogatgina ilm o'rganish bir kechalik ibodatdan yaxshi, bir kunlik esa uch oy tutilgan nafil ro'zadan afzaldir.
- Ilmga nisbatan go'yo cho'pon kabi posbon bo'linglar, lekin ilmni rivoyat qiluvchi bo'lmanglar.
- Janob payg'ambarimiz qachonki yosh bolalar oldidan o'tib qolsalar, ulardan oldin salom qilib o'tar edilar.
- Bilimi yetmagan narsaga fatvo bergan kishi unga amal qilganlarning gunohlarini ham olur. Kimki haqiqatni bilib turib, noto'g'ri maslahat bersa, demak, unga xiyonat qilibdi.
- Kimki ulamolar oldida faxirlanish, nodonlar bilan bahslashish yoki odamlarning diqqatini o'ziga tortish maqsadida ilm o'rgansa, uning joyi jahannamdur.
- Ilmni o'rganib so'ng uni boshqalarga o'rgatmaslik go'yoki molu dunyoni yig'ib, uni sarf qilmay, ko'mib qo'yish bilan barobardir.

Bulardan ayon bo'ldiki, ibratlar bo'lajak o'qituvchini avvalo rostgo'ylikka, va'dasining ustidan chiqishga da'vat etadi. Masalon o'qituvchi bolalarga ... "uyga vazifani to'liq bajarib kelgan o'quvchining ota- onasiga rahmatnoma yo'llayman" - deb va'da berdi. O'quvchi bor kuchini ishga solib mas'uliyat bilan o'qituvchi tomonidan berilgan vazifani bajarishga harakat qiladi. Kelgusi darsda o'qituvchi bergan va'dasiga mas'uliyatsizlik bilan qaradi, e'tibor ham bermay qo'ydi. Bu holatdan o'quvchining o'qituvchiga nisbatan ishonchi yo'qoladi.

O'qituvchi va o'quvchi orasidagi masofa izdan chiqadi.

Bu holat bir necha marta takrorlanadigan bo'lsa, fanga nisbatan etibori pasayadi.

O'qituvchini hurmat qilmay qo'yadi, darsga ham quloq solmaydi.

Imkon qadar o'qituvchini kalaka qilishga urinadi.

O'qituvchi har qancha urinmasin, ta'lim berishda asl maqsadga erisha olmaydi, darslar tarbiyaviy soatga aylanib boraveradi.

Yana quyidagini izohlaydigan bo'lsak, bo'lajak o'qituvchi bilimi yetmagan narsalar haqqida ma'lumoti bo'lmay turib noto'g'ri ko'rsatma berilganda yoki haqiqatni bilib turib, noto'g'ri maslahat berganda: oddiy xalq ham qo'l ostidagi tarbiyalanuvchilar ham to'g'ri ma'lumot sifatida qabul qiladi. Bundan esa hayot tarzida foydalanmoqchi bo'ladi. Ammo berilgan ma'lumotning noto'g'riligini bilib olgach, o'sha o'qituvchiga nisbatan chala savod, savodsiz degan xulosada qoladi.

Bo'lajak o'qituvchi bunday qaltis xatodan juda ehtiyot bo'lishi kerakligiga turtki berilgan.

"Ilmga nisbatan go'yo cho'pon kabi posbon bo'lish" deyilganda, bo'lajak o'qituvchi o'z

ПЕДАГОГИКА ВА ПСИХОЛОГИЯ

fani ustidan doim yangiliklarga qiziqib ma'lumotlar zahirasini to'ldirib borishi darkorligi ta'kidlanmoqda.

Yana bir misolni kuzatamiz. Agar hunarmand bo'lsa, u hunarning ilmini bilishi vojibdir. Agar savdogar bo'lsa, savdo ilmini bilmog'i vojib sanaladi: hamma bay'i va shart-sharoitlarni bilgay. Toki botil bay'dan hazar qilgay ushbu vajhdan Umar roziyallohu anhu bozor ahlini darra urib, ilm o'rganishga buyurar edilar. U zot roziyallohu anhu, olmoq va sotmoq masalalarini bilmagan kishi bozorga kirmagayki, xabari bo'lmagan holda o'zi harom yer, deganlar. Har hunarmand o'z hunarining ilmini bilmagi vojibdir,[5]

Bo'lajak o'q'ituvchi o'z fanining yetuk mutaxassisi, ma'naviyati teran, irodasi mustahkam bo'lmas ekan, jamiyatda, xalq orasida munosib o'rin egallay olmaydi.

O'zbek xalqi yaratgan boy pedagogik merosi bo'lajak o'q'ituvchini ma'naviyatini rivojlantirishda o'ziga xos maktab yaratganligiga guvoh bo'lamiz. Milliy ma'naviyatimiz bo'lajak o'q'ituvchini tarbiyalashda, umuminsoniy fazilatlarni singdirishda va har tomonlama mujassam namunadir.

Alisher Navoiyning "Mahbub ul-qulub" asari umuminsoniy tarbiya sohasidagi mukammal bir asar hisoblanadi. Tarbiya haqqida gap borar ekan, mutafakkirning barcha o'g'itlari bo'lajak o'q'ituvchi tarbiyasi uchun noyob xazina bo'lib xizmat qiladi. Ijodkor asarlarda har bir so'zdan unumli va o'rinli foydalana olgan. Har bir hikmati, hayoti va merosi, bo'lajak o'q'ituvchilarni tarbiyalash uchun ibratlidir. Bo'lajak o'q'ituvchi psixologiyasida quyidagi holatlar har doim analiz va sintez qilib turilishi kerak. O'quvchilarga qattiq azob bermaslik, zo'ravonlik qilmaslik, yoki nimadir tamagirlik qilishdan tiyilishni ongiga singdirmog'i lozim. G'azabi kelganda o'zini tutib tura olishi, sabrli bo'lib, har qanday vaziyatda shoshqaloqlikdan yiroq turishi bo'lajak o'q'ituvchilar ma'naviyatini rivojlantirishda zamin yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Mutalipova M.J. "Xalq pedagogikasi" «Fan va logiya» nashriyoti, 2015.
2. Qoraboyev U.H. "Odatnoma". T.: "O'zbekiston" -2018. 14-15 bet
3. Alisher Navoiy, "Mahbub ul-qulub". Toshkent: "Yangi asr avlodi", 2019-yil. 316 bet.
4. Alisher Navoiy. To'la asarlar to'plami. O'n jildlik: 9-jild. - Toshkent: G'.G'ulom, 2012-yil. 765 bet.
5. Abu Homid G'azzoliy " KIMIYOI SAODAT" Toshkent-2018. 128-129 bet.
6. Xodjayev B.X. "Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti". Toshkent - 2017, "Sano-standart" nashriyoti.
7. Hadis [Al-jome' as-sahih], 1-4 j.lar (2 nashri), T., 1997.